

INGLIZ TILNI BOSHLANG'CH SINFLAR KESIMIDA O'QITISHDA INNOVATION METHODS IN ENGLISH CLASSROOMS

Jabborova Mahina Jamoliddin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti talabasi

Mohinur Qayumova Murodullayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili

fani o'qituvchisi (maqola ilmiy rahbari)

mohinurqayumova2606@gmail.com

jabborovamohina11@gmail.com

Tel: +998902265728

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda bolalarga ingliz tili tez oson o'qitishning samarali metodlari haqida atroflicha yoritilgan. Ushbu maqolada bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so'zlar : boshlang'ich sinf, ingliz tili, bolalar, o'rgatish, qiziqarli, qo'shiq, harakatlar, tushuntirish, tez va oson, yosh bolalar, aqliy, jismoniy, o'qituvchi, ovozlar.

Kirish. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'larning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lif muassasalari va maktab keyinchalik institatlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lif dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi.

Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Boshlang'ich ta'lilda ingliz tili o'qitishning zamonaviy maqsad, mazmun va texnologiyalarini takomillashtirish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ingliz tili o'qitish amaliyotida to'plangan an'anaviy va xorijiy tajribalarni umumlashtirishga xizmat qiluvchi o'quv qo'llanmalarining yetishmasligi oqibatida mazkur soha uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida yetarlicha samaradorlikka

erishilmayapti. Muallif yuqorida bayon etilgan muammolarni bartaraf etish, ya’ni mazkur ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, amaliyotchi o‘qituvchilar, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun maxsus o‘quv qo‘llanmani yaratish mas’uliyatini o’z zimmasiga olishga jurat etdi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimizda chet tillarini o‘rganishga katta e’tibor berib kelinmoqda.

Bilamizki, bolalar qiziquvchan, shu sababli kichik yoshidagi bolalarga chet tilini o‘qitishda asosan o‘yin, rasmlar, qo’shiq va she’rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki ulardagи asosiy tushuncha miyasida rasmlи holda tasvirlanadi. Bu esa o‘z navbatida bizdan barcha o‘rgatiladigan narsalarni shunga ko‘ra tasvirlashni talab etadi. Maktabgacha ta’limda hamda boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan bolalarning psixikasi qizqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko‘p e’tibor berishadi. Shuning uchun ustoz va murabbiylar ko‘proq o‘yin metodlaridan foydalanishi samarali usul hisoblanadi.

Asosiy qism: Hozirgi kunda davr talabi bo‘lgan ingliz tilini avlodga maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinflardan o‘rgatib borishning turli xil usullari va yo‘llari haqida ko‘plab metodlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tadbiq etish masalalari ustida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda . Bunday izlanishlar samarasi o‘z natijasini ko‘rsatishi tayin. Yosh avlodga ularning bolalik chog’laridanoq chet tillaridan saboq berishning ko‘plab afzallikkleri mavjud. Ular bolalik chog’ridanoq tilga mehr qo‘yishi va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini uyg’otishimiz eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki ular chet tilini o‘rganishi mobaynida o’sha xalqning nafaqat tili, balki millati, qadriyatlari va aholisining yashash tarzi bilan ham tanishib boradi. O‘z-o‘zidan o‘quvchi ongida dunyo haqida tushuncha va taassurotlar paydo bo‘la boshlaydi. Til bilish ko‘plab keng imkoniyatlar yaratadi. Dunyo kezishga, biznesga, ilm olishga, dunyoqarashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, albatta.

Chet tillari maktab o‘quvchilariga ya’ni, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bosqichma – bosqich o‘rgatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Bu jarayonda 1-sinf o‘quvchilariga o‘zlariga mos tarzda, asosan, multimediali va og‘zaki o‘rgatish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinf o‘quvchilarida o‘zlarining ona tilisi haqida to’lliq 84 tushuncha va bilim hosil qilmasdan turib ularga ingliz tili alifbosi va yozuv malakasini mutlaqo noto‘g’ri hisoblanadi. Shuning uchun ham ingliz tilidan ularga ilk saboqlar o‘yinlar, multimedia vositalari va og‘zaki usulda o‘rgatiladi, so‘ngra o‘quvchilar 2-sinfga o‘tishgach ularda savod o‘rgatish davri to’lliq yakunlangan bo‘ladi va shu davrdan boshlab ularga ingliz alifbosi va yozuv malakalarini o‘rhatish va o‘quvchilar bilimini shakllantirishni yo‘lga qo‘yish darkor. Shu tariqa ularda chet tilini shakllantirish va rivojlantirish amalga oshirish mumkin. Ingliz tili o‘zining ko‘plab jihatlari va qiziqarli xususiyatlari bilan o‘quvchining qiziqishiga va bu tilni

jiddiy o'rgasnishga olib keladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarida 2013-2014- o'quv yilidan boshlab 1-sinflardan ingliz tilini o'yin tarzidagi mashg'ulotlari va og'zaki nutq darslari shaklida uzlucksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. 2- sinfdan esa grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Daraxt", "D¹ictionary", "Eng tezkor" va shu kabi ko'plab metodlardan fodalanish mumkin. "Daraxt" metodi haqida gapiradigan bo'lsak bo'lsam, bu metod , asosan , bolalarga o'yin tarzida olib boriladi. Katta oq qog'oz (plakat) ga chiroyli daraxt rasmi chiziladi. O'quvchilarga esa gullarga savollar yozib tarqatiladi yoki mevalarga savollar yozish ham mumkin. So'ngra o'quvchilar savollarga to'g'ri javob berishsa, o'sha gulni (mevani) daraxtga yopishtirishadi. Shu tariqa o'quvhilar o'zlarining "bilim daraxti" ni yasashadi. "Dictionary" – bu metodda esa asosan taqqoslash va solishtirish asosiy o'rinda turadi. Ya'ni, o'quvchilarni 2guruuhga bo'lib, 1-guruuhga elekronniy lug'atdan, 2-guruuhga esa kitob variantdagi lug'atlardan foydalangan holda so'zlarni, matnni kim birinchi tarjima qilish vazifasi beriladi. Bu ususlda , albattaki, 1-guruh tezkorlik bilan shartni bajarishadi. Ammo, 2-huruhnинг xotirasida so'zlar ko'proq va uzoqroq vaqtga saqlanib qoladi. Chunki, ular har bir so'zni qiynalib va mehnat qilib qidirib topishadi. Yana shu tariqa guruhlar lug'atlarning bu ikki xil variant haqida ko'plab foydali va samarali usullarin tomonlarini aytib o'tishadi. "Eng tezkor" metodi haqida esa quyidagicha tushuntirib o'taman. Bu metodda o'quvchilarga kichik qog'ozlardan futbolkachalar yasab tarqatiladi.

O'quvchilar esa qog'ozga o'zları bilgan so'zlarni yozib to'ldirishidi. Kim ko'p so'z yozsa va birinchi bo'lib to'ldirib bo'lsa, o'sha eng tezkor o'quvchi hisoblanadi. Shu va shu kabi ko'plab metod hamda o'yinlardan foydalangan holda bolalarning ingliz tilini yaxshi va mukammal o'rganishlarini ta'minlash mumkin. Bu metodlarning samarasи juda ham yaxshi foyda berishi aniq.

Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi bunday katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi kattaroq bolalarnikiga qaraganda yorqinroq bo'ladi. Bolalarni o'qitish - bu mifik o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Agar kattalar chet tilida gaplashsa, bu uning boshqalarga o'rgatishi mumkin degani emas. Uslubiy jihatdan nochor darslarga duch kelganda, bolalar uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishlari va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagи bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak.

¹ <https://lex.uz>

2 N.Q Xatamova, M.N.Mirzayeva "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar"(uslibiy qo'llanma), Navoiy 2006.40 be

Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o'qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o'rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- fonetik nuqtai nazardan to'g'ri takrorlash qobiliyati inglizcha so'zlar o'qituvchi, ona tili yoki ma'ruzachining orqasida, ya'ni eshitish diqqatini, fonetik eshitish va to'g'ri talaffuzni bosqichma-bosqich shakllantirish;
- inglizcha so'z boyligini o'zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish;
- ma'lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish, izchil bayon tuzish.

Biz yashayotgan hozirgi zamonaviy hayotimizda nafaqat maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Sababi iqtisodiy, fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rnida shuni aytish mumkinki, yosh avlodga chet tillarini (ingliz tilini) mакtablarning boshlang'ich sinflaridan boshlab o'rgatishning ko'plab foydali tomonlari mavjud. Va ayni shu usul bilan ularning bilimini va ko'nikmalarini rivojlantirishimiz mumkin. Ular boshlang'ich sinflarda olgan bilimlari asosida yuqori sinfga o'tishgach bemalolo qiyalmasdan ingliz tilini yanada chuqurroq o'rganishlari hamda bu tilde og'zaki so'zlashish imkoniga ham ega bo'ladilar. Shuning uchun ham ularga yoshlik chog'laridanoq tillarni puxta o'rganish kerakligini o'rganish onglariga singdirib borish darkor. O'quvchilarga uy sharoitida ham alohida vaziyatlarni yaratib, dars qiladigan xonasini ingliz tiliga moslab jihozlash kerak. Misol uchun ingliz tilini eslatib turadigan inhliz alifbosini olib berish, Buyuk Britaniya yoki dunyo xaritasini ilib qo'yish, turli 85 xil multimediali ilovalardan foydalanishi uchun televizor olib berish va shu kabi sharoitlarni qilib berish zarur. Har bir qilingan harakat o'z samarasini berishi tayin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir nechta samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevori bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'quvchilarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm-fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, " Til bilgan –el biladi"

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldosheva D.A. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari. 2022.

2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.-T. :O'qituvchi, 2016
3. Hoshimov O'.H., Yokubov I.YA «Ingliz tili o'qitish metodikasi» Toshkent 2003y.
4. Muxlisa, Sobirjonova, and Qayumova Mohinur.
"LINGVOKULTURALOGIYANING KELIB CHIQISH TARIXI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 379-383.
5. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.
6. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 59-61.